

## IQBOL MIRZO IJODIDA “JADIDLAR” MAVZUSI

*Buxoro davlat universiteti  
Filologiya fakulteti talabasi  
Nurillayeva Munisa*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Iqbol Mirzo “Jadidlar” she’r tahlil qilingan, jadidlar hayoti, faoliyatini haqida, asarlari hamda o’zbek xalqi uchun qilgan ishlari haqida so’z borgan.

**Kalit so’zlar:** Jadidlar, Cho’lpon, Tavallo, Ibrat, Hamza, Abdulla Avloniy, Abdulla Qodiriy va ijtimoiy, ilmiy, adabiy sohalar.

Uyg’onish chaqirig’i, o’zlikni anglash tuyg’usi, istoqlol uchun kurash yo’lining bosh qahramonlari bo’lgan jadid bobolarimiz har sohada: ma’naviy-ma’rifiy, adabiy – ilmiy, iqtisodiy, madaniy jabhalarda yangilikka intilib yashashgan. Ular shunday bir tahlikali vaziyatlardan qutulishning yagona yo’li – bu ilm. Bilamizki, jadidlarning orzusi millatni tanazzuldan chiqarish, dunyo xalqlari o’rganish hamda o’z madaniyatlarimizni ommaga yoyish. Shu g’yalarni targ’ib etganliklari uchun ularni “jadid” deb nomlashgan. “Jadid” so’zi arabcha “ yangi”, “yangilik tarafdori” degan ma’nolari anglatadi.

Taqdir erkalatgan qizlar, yigitlar –

Sohilda sayr qilib, atirgul hidlar.

Xayolchan boqadi g’oziy shahidlar...

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Shaxsiy namuna yo’q, chunki Ibrat yo’q,

Olimlar juda ko’p, bitta Fitrat yo’q,

Shu sabab majol bor, kuch bor, qudrat yo’q,

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Shoir bevosita shaxsiy namuna bo’lishga arziydigan jadid bobolarimizdan biri Ibratga ishora etib ketganlar. Is’hoqxon Ibrat - milliy uyg’onish davrining faol ijokorlaridan biri, serqirra iste’dod sohibi, zabardast tilshunos, ma’rifatparvar shoir, ilk o’zbek matbaachilaridan biri shu sharhning o’zi jadid bobomiz haqiqatda, shaxsiy namuna bo’lishlarin dalillab turadi. Buxorolik olim Abdurauf Fitrat madaniyatimiz tarixiga shoir va nosir, dramaturg va publitsist, tilshunos va adabiyotshunos, tarixchi hamda faylasuf, sa’natshunos vajamoat arbobi sifatida kirdi

...Tavallo, Qodiriy, Cho’lponlar qayda?

Hamzaxonlar qayda, Usmonlar qayda?

Og’iz juda katta, yuraklar mayda,

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Keyingi ko'zga ko'ringan jadidlardan biri bu -Tavallo o'zbek va fors adabiyotini va tillarini mukammal o'rganidi. Shunihgdek, "Sadoyi Farg'ona", "Taraqqiyot" kabi gazeta va jurnallarda o'zini she'rlari va qator maqolalari bilan chiqishlar qiladi. Qodiriy qalamiga mansub "O'tkan kunlar" romani o'zbek adabiyotining roman janridagi ilk asardir. Shu bilan yozuvchi o'zbek romanchiligi maktabiga asos solgan. Birinchi roman bo'lishiga qaramasdan ma'no mundarija g'oyasi nihoyatda kend. Un da xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy axloqiy, oilaviy-ishqiy muammolar qalamga olingan. Keyingi jadid bobolarimizdan biri Cho'lpon juda kam umr ko'rgan bo'lsada, o'zidan bizga juda ko'p meros qoldirgan. 1917-yilgi jadid gazetalari – "Kengash", "Turon", "Turk eli" va boshqalar Turkiston xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash shakllariga daxldor nihoyatda qizg'in bahslardan dalolat beradi. Turkiston taraqqiyparvarlarining dastlab ma'rifatchilik, so'ngra siyosiy harakati keng quloch yozgan 1914-1917-yillarda Abdulhamid Cho'lpon ijodi ham gullab-yashnadi. 16 yoshida "Adabiyot nadur?" maqolasini yozgan muallif jadidchilik vujudga keltirgan yangi adabiyot asoschilaridan biriga aylandi. Biroq uning qiziqishlari faqat adabiyot va teatr san'ati bilan cheklanmagan. 1917-yilgi jadid gazetalari – "Kengash", "Turon", "Turk eli" va boshqalar Turkiston xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash shakllariga daxldor nihoyatda qizg'in bahslardan dalolat beradi. Turkiston taraqqiyparvarlarining dastlab ma'rifatchilik, so'ngra siyosiy harakati keng quloch yozgan 1914-1917-yillarda Abdulhamid Cho'lpon ijodi ham gullab-yashnadi. 16 yoshida "Adabiyot nadur?" maqolasini yozgan muallif jadidchilik vujudga keltirgan yangi adabiyot asoschilaridan biriga aylandi. Biroq uning qiziqishlari faqat adabiyot va teatr san'ati bilan cheklanmagan.

...Qopog'on davr edi, qattol, qatag'on,

Otilib chiqqanni shartta otag'on...

Bugun yuki yengil tuya yotag'on...

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

O'ziga kelmaydi o'zdan ketganlar,

Ixlos qo'yib shayton dumin tutganlar...

Qani yurt deb o'zini unutganlar?

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

1938-yilning 28-mart kuni yuzlab ziyolilarni qatag'on qilishga oid ro'yxatga imzo qo'yadi. 4-oktabrdan 5-oktabrga o'tar kechasi, hamma uxlagan vaqtda Fitrat, Abdulla Qodiriy, Otajon Hoshim kabi ziyolilar hozirgi Toshkent shahriga maxsus poligonida otib tashlangan. Bu hodisa xalq uchun juda og'ir zarba bo'lgan.

...Ufqqa urilib, qaytib kelgan o'q

Mening yuragimni teshib o'tgan cho'g'.

Muallimlar serob, Avloniyalar yo'q.

Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Ta'lim-tarbiyani najot bilganlar,  
Ilmiga o'zlari amal qilganlar.  
Qarang, amal deb o'z jonin yulganlar,  
Jadidlar yetishmayapti, jadidlar.

Abdulla Avloniy XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o'zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri, ma'rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlatva jamoat arbobi. Avloniy asrimiz boshlarida o'lkamizda avj olgan jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi sifatida millat bolalarini savodli qilish, ulardan yetuk olimlar, mutaxassislar tayyorlash, Vatanni ozod ko'rish, farovon etish yo'lida fidoyilik bilan mehnat qildi. Ana shu maqsadda juda ko'p sohalarda faol ish olib bordi. 1907-yilda o'z uyida "Shuhrat" nomli gazeta nashr qildi. Mahallasida yangi usuldagi maktab ochdi. "Usulijadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar", "Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni", "Turkiy guliston yoxud axloq" kabi darslik va o'qish kitoblari tuzdi. Maktab-maorif ishlariga yordam ko'rsatish maqsadida xayriya jamiyati tashkil qildi. "Nashriyot" shirkati tuzib, Xadrada "Maktab kutubxonasi" kitob do'konini ochdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Iqbol Mirzo "Sizni kuylayman" she'riy to'plam. Toshkent-2007.
2. Jadidlar to'plami. Toshkent-2022.
3. [@ziyo.uz.com](https://ziyo.uz.com).
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. [@tafakkur.net](https://tafakkur.net)